

O'ZBEKISTON HUDUDIDA IBTIDOIY JAMOA TUZIMI TARIXSHUNOSLIGI MASALALARI.

Urganch davlat universiteti Arxeologiya mutaxassisligi

2-kurs magistanti

Boymurzayeva Hayotxon Asadovna

Annatsiya: *Maqolada O'zbekiston hududida ibtidoiy jamoa tuzimi tarixshunosligi masalalari tahlil qilingan.*

Аннотация: *В статье анализируются вопросы историографии первобытнообщинного строя на территории Узбекистана.*

Abstract: *The article analyzes the issues of the historiography of the primitive community structure in the territory of Uzbekistan.*

Kalit so'zlar: *Eski Termiz, Teshiktosh, Boysun, Pomir, Yonboshqal'a, Omonqo'ton, Takalisoy, Sulton Uvays, Qoraqum, Chust, Zamonbobo, M.E.Masson, V.A.Shishkin, A.P.Okladnikov, S.P.Tolstov, M.A Itina, B.V. Andrianov, Y.A. Zadneprovskiy, Y.G'ulomov, A.Asqarov.*

Ключевые слова: *Эски Термез, Тешикташ, Бойсун, Памир, Ёнбошкала, Амонкотан, Такалисой, Султан Увайс, Каракумы, Чуст, Замонбобо, М.Э. Массон, В.А. Шишкин, А.П. Окладников, С.П. Толстов, М.А. Итина, Б.В. Андрианов, Ю.А. Заднепровский, Ю.Гюломов, А.Аскаргов.*

Keywords: *Old Termez, Teshiktash, Boysun, Pamir, Yonboshqala, Amonqo'tan, Takalisoy, Sultan Uvays, Karakum, Chust, Zamonbobo, M.E. Masson, V.A. Shishkin, A.P. Okladnikov, S.P. Tolstov, M.A Itina, B.V. Andrianov, Y.A. Zadneprovsky, Y.G'ulomov, A.Askarov.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida turli nomda arxeologik ekspeditsiya va qazishmalar keng qamrovli ravishda amalga oshirilgan qazishma ishlari natijalarini quyidagi tarixiy davrlarga ajratgan holda ushbu band mazmunini yoritish mumkin;

1-tarixiy davr XX asr 30-yili-40 yillar o'rtalarigacha.

2-tarixiy davr 1945-1990 yillar.

3-Mustaqillik yillari tarixshunosligi.

Birinchi tarixiy davrda M.E.Masson rahbarligida (1936-1938 yillar) Surxondaryo viloyati Eski Termiz atrofida Ayritomda olib borgan qazishma natijasida olingan arxeologik manbalarni ilmiy tahlil qilish asosida mill avv 12-7 ming yilliklarga oid degan xulosani qayd qilgan. 1937-yilda V.A.Shishkin Buxoro viloyati Qorako'l tumani hududida Varaxsha yodgorligi atrofi mezolit davriga oid manbalar to'g'risida tarixiy ma'lumotlarni izoh qilgan²⁰.

Shu tariqa, O'zbekiston ibtidoiy jamoa tuzumini mezolit (12-7 mingyilloklar) davri ovchi termachilarining Buyuk muzlik ustunligidan (sovuq harorat) eson-omon chiqib, kundalik

²⁰ Шишкин В.А. Варахша. – Тошкент. “Фан”. – С.5-7.

faoliyatlarini ilk tarixi boshlangan.1938-yillarda Surxondaryo viloyati shimoliy hududida Zarafshon vodiysini geografik jixatidan yoritgan Boysun tumanida joylashgan Teshiktosh tabiiy g'or-manzilgohida A.P.Okladnikov rahbarligida arxeologik guruh qazishma ishlarini olib borishi natijasida 3 mingdan ziyod tosh qurollari, handa 9 yashar neandertal bola suyaklari, ular o'rta tosh-mustye davriga oid degan xulosasini ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilgan²¹.

ASOSIY QISM

Teshiktosh g'or-makonidan olingan tosh mehnat qurollari, ayniqsa inson jasadi suyaklari o'rganilishi ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Arxeologik izlanishlar natijalari odamzot tekislik, balki tog'li hududlarni tabiiy resurslari odamzotni joylashib, ilk kasbi-korlarini belgilab olishiga imkon berganligi, bir qator xo'jalik-madaniy tiplar yechini tarixiy geografiya, etnografiya, etnogeografiya va etnodemografiya hamda etnoanbronalogiyafanlarini vujudga kelishiga zamin bo'lgan.Teshiktosh makoni o'zining moddiy ashyolari, umumiy-ilmiy ahamiyatga ega bo'lishi tadqiqotchilar diqqatini jalb qilib, ovchilarning tarixiga oid maqolalar, risolalar, O'zbekiston tarixi tosh-mustye davri tarixshunosligini yanada rivojlantirdilar. Arxeologik nashrlarda ibtidoiy jamoa tuzimi tuzilishi ilk tosh davri, o'rta tosh davri, mezolit davrimanzilgohlari to'g'risida ma'lumotlar kuzatilmaydi. Bunda albatta arxeologiya fani sohasida mutaxassislar yetishmasligi deb izohlash lozim. 1985-yilda tashkil etilgan Turkiston Arxeologiya xavaskorlari to'garagi ajdodlarimizni tarixini o'rganishga mablag'i yo'q edi, faqat eski noyob ashyolarni to'plash bilan shug'ullanganlar²².

1939-yilda Xorazm ekspeditsiyasi Qoraqalpog'iston RespublikasiTo'rtko'l va Beruniy hududlarida kaltaminor sug'orilish inshoati sohili etagiga ulangan Yonboshqal'a yon qismiga yog'och ustunli ushbu nomda kulba qoldig'i tekshirilib olingan ashyolarmill avv IV-III ming yilliklarga oidligi ikki tarixiy davr, ya'ni ikki bosqich IV- ming yillik oxiri-III ming yillik boshi, ikkinchi bosqich III-ming yillik ikkinchi yarmi - II ming yillik boshi qilib belgilangan degan xulosaga kelingan²³. Shu tariqa, birinchi tarixiy davrda arxeologik guruhlar tomonidan mezolit, mustye va neolit davri ovchi-termachilari tarixiga oid ma'lumotlar ilmiy jamoatchilik e'tirofiga xavola qilganlar. Mazkur tarixiy ma'lumotlar tadqiqotchilarni mavzularni tanlab ilmiy tadqiqotlarni olib borishiga kalit bo'lgan. Shu bilan birga mazkur davrda Rossiya ilmiy markazi arxeologiya ekspeditsiyasi rejalari asosida Teshiktoshda arxeologik ishni olib borishda yagona bo'lgan.

Ikkinchi tarixiy davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri Rossiya ilmiy markazi bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi tashkil etilgandan keyin unung huzuridan O'zbekiston tarix va arxeologiya instituti arxeologiya guruhi Samarqand Davlat Universiteti, 1945-yildanXorazm ekspeditsiyasi faoliyatidavom ettirildi. Bir qator arxeologiya jamoalari tashkil qilindi. Chunonchi, 1945-1949-yillarda Pomir, 1945-yilda Pomir-Farg'ona ekspeditsiyalari faoliyat olib borganlar. 1945-yilda Xorazm ekspeditsiyasi Amudaryo o'ng sohili va so'l sohili hududlarida (O'zboy, Sariqamishbo'yi) areologik izlanishlari uzluksiz davrda olib borish boshlab yuborilgan. 40-yillarning o'rtalaridan Samarqand davlat universiteti aspirati D.N.Lev rahbarligida arxeologik guruh (tarixchi talabalar ishtirokida) Urgut tumani

²¹ Эгамбердиева Н. Археология . Ўқув қўлланма. 2011. – Б. 25.

²² Открытые Туркестанского кружок любителей археологии // декабр 1985г. –Ташкент. 1895. – С. 4-5.

²³ Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ. 1948. – С.32.

Taxtaqoracha dovonida Omonqo‘ton qishlog‘i hududida joylashgan Omonqo‘ton va Takalisoy g‘or-makonlarida qazishma ishlari natijalarini ilmiy jamoatchilik e‘tiboriga havola qilgan. Hususan Omonqo‘ton tabiiy g‘or-makonida 10 yil (1947-1957 yillar) qazishma ishlari natijasida o‘rta paleolit muste davriga oid bo‘lgan bunday ashyolar Takalisoy g‘or-makonidan ham aniqlanib, o‘rta tosh davriga oidligi qayd qilingan²⁴. (Xorazm ekspeditsiyasi tarkibida turli sohalar birmuncha puxta o‘zlashtirib olgan mutaxassislar bor edi). Mavzular bir-biriga ilmiy yo‘nalishlarni belgilab olganlar, misol tariqasida S.P.Tolstov arxeologik tadqiqotlar natijalari, uning asarlarida aks etgan, A.S.Kess esa Xorazm vohasi geomorfologiyasi paleogeografiya xususiyatlari nashrlarida o‘z ma‘nosini topgan. M.A.Itina neolit urug‘-jamoalari tarixini, B.V. Andrianov qadimgi Xorazm vohasi sug‘orilish tarixi, Y.G‘ulomov Xorazmning qadimgi, ilk va o‘rta asr sug‘orilish tarixi, A.V.Vinogradov neolit davri urug‘-jamoalari tarixini o‘rganish yo‘nalishini tanlab olib, manzilgohlarda keng qamrovli tarzda qazishma ishlarini amalga oshirish, tarixiy davrda kechgan jarayonlarga oid manbalarni olishga erishdilar. A.V.Vinogradov Amudaryo o‘ng sohili, Surxondaryo quyi havzasida, M.A.Itina Tuyamo‘yin va O‘zboy hududlarida, B.I.Vaynberg Sariqamishbo‘yi Quyi soyda neolit davri urug‘ jamoalari manzilgohlarida qazishma ishlarini olib borib, uning natijalari nashrlarda aks etgan.

A.V.Vinogradov Qoraqum sochma qum uyumlari oralig‘ida faoliyat olib borgan suv havzalari organik dunyosi hamda sohil etaklarida o‘simlik va hayvonot olamidani xo‘jalik sohalarini (ovchilik, termachilik) olib borgan urug‘ jamoalari manzilgohlari (Jonbos 4,5, Tolstov 11,12,) hamda Sharqiy Orolbo‘yi hududlarida qazishma ishlari natijalari ilmiy tahlil qilinib, uning tarixiy xranalogiyasini 3 tarixiy davrga ajratishni qayd qilgan.

Xorazm ekspeditsiyasining nashrlarida Janubiy Orolbo‘yi hududida Sulton Uvays tog‘ tizmalarida hamda O‘zboy hududlarida neolit urug‘ jamoalari eneolit davrida etnik munosabatlarni aks ettirganligi to‘g‘risida xulosalarni qayd qilgan. Aslida eneolit davriga oid tarixiy ma‘lumotlar XX asr boshida (1904-1905yillar Amerikalik geolog olim R.Pampelli hamda nemis arxeologi E.Shmidt bilan birgalikda Anov yodgorligida qazishma ishlari natijasida olingan madaniy ashyolarni ilmiy tahlilidan Anov I,II,III,IV tarixiy davrigacha oidligi qayd qilganlar²⁵.

XX asr 50 yillaridan boshlab, Xorazm ekspeditsiyasi Xorazmda (hozirgi Beruniy hududida Sulton Uvays tog‘i shimoli- sharqiy hududida Qamishli 1,2 manzilgohlarida M.A Itina esa Sariqamishbo‘yi havzasi hududida O‘zboyning shimoliy qismi Bola-ashel 8,9 hamda Tog‘olon hududiatroflarida manzilgohlarda (110,114) qazishma davrida olingan eneolit davriga oid ashyolar haqida o‘z maqolasida izoh qilgan²⁶.

Tadqiqotchilar tomonidan arxeologiya fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanmada Ustyurt, To‘yamo‘yin, Oqchadaryo markaziy hududi, Quyi va O‘rta Zarafshon, Toshkent va Farg‘ona vodiysida neolit davri urug‘ - jamoalari vorislari eneolit davrida ota bobolari xo‘jalik an‘analarini geografik muhit, antropogen landshaft ta‘sirida etnik munosabatlarni olib

²⁴ Лев Д.Н. Древний палеолит в Аманкутане // Труды УзГУ. Вып-39. – Самарканд. 1949. – С.105-119.;

²⁵ Dumrely R. Explorativus in Turkestan. Washington, 1908. Vol-1. –P. 234.

²⁶ Толстов.С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ РАН. “Наука”, 1962. – С.32-41.

borganliklari qayd qilinib, bu jarayon navbatlari tarixiy jarayonda davom etgan degan xulosaga kelgan²⁷.

Shu bilan birga M.A.Itina Xorazm vohasi janubida Tuyamoyin hududida bronza davri Qushqal'a, Sulton Sanjar va Qarriqizil manzilgohlari to'g'risida ma'lumotlarni qoldirgan²⁸. Shuningdek tadqiqotchini 1977-yilda nashr qilingan monografiyasida Orolbo'yi havzasida manzilgohlardan Tozabog'yob va andranova aholisi madaniyatiga oid xulosalar o'rin olgan, Lekin tub aholi Suvyorganliklar to'g'risida bironta shaxsiy fikrlarni kuzatish qiyin²⁹. Zarafshon vodiysida eneolit va bronza davri aholisining Janubiy Turkmanistondan kelganligi to'g'risidagi xulosalar qayd qilinadi³⁰. A.Asqarov Buxoro vohasidan kelgan etnik tadqiqotlarni olib borganaholi hujumi "Zamon-Bobo" madaniyatini ilmiy jamoatchilikka havola qilgan³¹. Y.A. Zadneprovskiy Farg'ona vodiysida Chust, A.I. Trenojkin Toshkent vohasi Toshkent yaqinidan Burchmulla qishlog'ida arxeologik yodgorliklarida olingan ashyolar bronza davriga mansubligini izohlagan³².

XULOSA

Shu tariqa yuqorida zikr qilingan tarixiy ma'lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelish mumkin: O'tgan asr adabiyotlari va milliy mustaqillik yillari nashrlarida tarixiy ma'lumotlar asosida O'zbekistonning ibtidoiy jamoa tuzumi davri tarixshunosligi fani shakllanishiga olib keldi. Tarixiy ma'lumotlarning geografik ahboroti navbatdagi tarix davri tarixshunosligining taraqqiy etishiga asos bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Массон М.Е. Городище Старого Термеза и их изучение. 1940. "Фан". Серия-1, Вып-2.- С.
2. Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. - М - Л. 1962. № 118.
3. Эгамбердиева Н. Археология . Ўқув қўлланма. 2011.
4. Открытые Туркестанского кружок любителей археологии // декабр 1985г. - Ташкент. 1895.
5. Толстов С.П. Древний Хорезм. - М.: МГУ. 1948.
6. Лев Д.Н. Древний палеолит в Аманкутане // Труды УзГУ. Вып-39. - Самарканд. 1949.
7. Dumrelly R. Explorativus in Turkestan. Washington, 1908. Vol-1.

²⁷ Бижанов Е. Б. Неолитические памятники Юго - Восточного Устюрта // Древняя и средневековая культура Юго - Восточного Устюрта. - Ташкент. "Фан", 1978. - С. 18 - 79.; Итина М. А. Памятники эпохи неолита и бронзы // Древности Южного Хорезма // ТРХАЭЭ. - М.: "Наука", 1991. Е. XVI. - С. 66 - 72.; Журакулов М. Ж. Самарканд вохасининг ибтидоий маданият тарихи саҳифаси. - Самарканд. 2011. № 1 (2). Б. 15-17.

²⁸ Итина М. А. Памятники эпохи неолита и бронзы // Древности Южного Хорезма // ТРХАЭЭ. - М.: "Наука", 1991. Е. XVI. - С. 72-79.

²⁹ Итина М. А. История степных племен, Южного Приаралья (II - начало I тысяч. до н.э. - М.: "Наука", 1977. Т. X. - С. 44-108.

³⁰ Исаков А. И. Саразм: Новый земледельческий памятник Средней Азии // СА. - М.: "Наука", 1986. № 1. - С. 152 - 157.

³¹ Аскарлов. А. Культура Заман - баба в низовьях Зеравшана // ОНУ. - Ташкент. 1962. № 1. - С. 59 - 65.

³² Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. - М - Л. 1962. № 118. - С. 118 - 328. ; Тереножкин А. И. Клад антроповских бронзовых предметов из с. Бричмулла близ Ташкента // СА. - М.: 1962. - № 3. - С. 279 - 282.; O'zbekiston tarixi. -Toshkent. "O'qituvchi", 2023. Jild II. -B. 19-95.

8. Толстов.С. П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: ИВЛ РАН. “Наука”, 1962.
9. Бижанов Е. Б. Неолитические памятники Юго - Восточного Устюрта // Древняя и средневековая культура Юго - Восточного Устюрта. – Тошкент. “Фан”, 1978.
10. Итина М. А. Памятники эпохи неолита и бронзы // Древности Южного Хорезма // ТРХАЭЭ. – М.: “Наука”, 1991. Е. XVI.
11. Итина М. А. История степных племен, Южного Приаралья (II - начало I тыся. до.н.э. – М.: “Наука”, 1977. Т. X.
12. Исаков А. И. Саразм: Новый земледельческий памятник Средней Азии // СА. – М.: “Наука”, 1986. № 1.
13. Аскаров. А. Культура Заман - баба в низовьях Зеравшана // ОНУ. – Ташкент. 1962. № 1.
14. O‘zbekiston tarixi. –Toshkent. “O‘qituvchi”, 2023. Jild. II.